

TARJIMADA VARIANTLILIK VA INVARIANTLILIK TUSHUNCHALARINING MOHIYATI HAMDA SPESIFIK XUSUSIYATLARI

Karimova Dilafró'z Halimovna

BuxDU, Nemis filologiyasi kafedrası dotsenti

Egamberdiyeva Oydina Zayniddinovna

Buxoro xalqaro universiteti

1-bosqich magistranti

Annotasiya. Ushbu maqolada tarjima variantlari va invariantlari tushunchalarining ilmiy-nazariy, terminologik mohiyati, xalq ertaklari bilan adabiy ertaklar tilining o'ziga xosligi, ularda qo'llanilgan lingvokulturemalarni tarjimada berish muammolari, talqini va tavsifi, xalq e'tiqodiy qarashlari, milliyliги bilan bog'lanishi va ularni tarjima jarayonida saqlab qolish imkoniyatlari o'rganilib tahlilga tortilgan.

Tayanch tushunchalar: Invariant, variant, lingvokulturema, terminologik mohiyat, lingvomadaniy, spesifik xususiyat, paradigmatic xususiyat, qiyosiy folklorshunoslik.

Аннотация. В данной статье раскрывается научно-теоретическая и терминологическая сущность понятий варианты и инварианты перевода, своеобразие языка народных сказок и литературных сказок, проблемы перевода используемых в них лингвокультурализмов, их толкование и описание, их изучается и анализируется связь с религиозными воззрениями людей, национальностью, возможности их сохранения в процессе перевода.

Ключевые слова: Инвариант, вариант, лингвокультурема, терминологическая сущность, лингвокультурология, специфика, парадигматическая особенность, компаративистское фольклористика.

Abstract. In this article, the scientific-theoretical, terminological essence of the concepts of translation options and invariants, the uniqueness of the language of folk tales and literary tales, the problems of translation, interpretation and description of the linguoculturalisms used in them, the connection with people's religious views, nationality, and the possibilities of preserving them in the process of translation are studied and analyzed.

Supporting concepts: Invariant, variant, linguokulturema, terminological essence, linguocultural, specific feature, paradigmatic feature, comparative folklore.

Mamlakatimizda istiqloл yillarida qiyosiy adabiyotshunoslik tarkibida qiyosiy folklorshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik yuqori taraqqiyot bosqichiga ko'tarilib, yangicha tafakkur va milliy mafkura asosida yaratilayotgan tadqiqotlarning o'rni hamda salmog'i ortib bormoqda. Ana shunday izlanishlar

qatorida turishga da'vogar bo'lib turgan ushbu tadqiqotda ilk marta tarjimada variantlilik va invariantlilik muammosi nemis ijodkorlari aka-uka Grimm ertaklarining o'zbek tiliga bevosita va bilvosita tarjima qilingan matnlari asosida tadqiq qilinib, bunda tarjima variantlariga xos xususiyatlarni, ular orasida mukammalini belgilab ko'rsatishga asos bo'luvchi belgilarni ochish ko'zda tutildi. Shuningdek, nemis ertaklarining o'zbek tiliga o'girilishida qanday tarjima usullari keng qo'llanilganiga ham e'tibor qaratildi. Ularda lingvokulturemalar, milliy realiyalarning berilishi orqali olmon xalqining ruhiyati, milliy-ma'naviy madaniyati, o'ziga xos mentaliteti qanday badiiy aks ettirilgani o'rganildi. Dunyo xalqlari ertaklarining variantlashuv omillarini va ko'rinishlarini qiyosiy adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik qatorida tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ham oydinlashtirishga qiziqish tobora ortmoqda. Bunga tarjimashunoslikda ertaklarni bir tildan boshqa tilga o'girishda pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik, antropologik yondashuvning kuchayishi, tarjima strategiyalari takomillashuvi, yangicha metodlar kashf etilishi adekvatlikka erishish imkonini kengaytirayotgani bilan ahamiyatli bo'lmoqda. Natijada tarjimada bir ertakning bir necha tarjimalari paydo bo'lib, kelib chiqqan variant turlari orasidagi umumiy va differensial jihatlarni, asliyat va o'girma o'rtasidagi ekvivalentlik, adekvatlik parametrlarini, bevosita hamda bilvosita tarjima variantlariaro aloqadorlikni aniqlash, nazariy asoslarini ochish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Hozirgacha nemis ma'rifatchilik adabiyotining g'oyaviy-badiiy takomiliga katta hissa qo'shgan aka-uka Grimm ertaklari ham qator xorijiy tillarga, jumladan, o'zbek tiliga bevosita va bilvosita tarjima qilingani uchun ularning tarjima variantlari, invariantlari nazariyasini yoritish lozimdir. Keyingi paytlarda invariant va variantlilik atamalari juda ko'p fanlar doirasida keng qo'llaniladigan bo'lib qoldi. Bu ko'pincha tilshunoslik va adabiyotshunoslikda kuzatiladi. Aslida falsafaning gnoseologiya bo'limi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan "mohiyat" va "hodisa" tushunchalari zahirida paydo bo'lgan invariant va variantlilik tushunchalari har bir fanning spesifikasidan kelib chiqqan holda turlicha o'rganiladi. U haqda tadqiqotlarda har xil fikrlar, yo'nalishlar vujudga kelgan. Bu tushuncha va hodisalar tarjimashunoslik sohasiga ham daxldordir.

"Variant" deganda, bir matnning boshqa bir matnni inkor etmagan holda yonma-yon yashashi tushuniladi. Variantlar bir-biridan katta farq qilmaydi. Bu tushuncha bilan bog'liq holda "variant", "variantdosh", "variantlilik" atamalari qo'llanadi.

"Variant" so'zi lotincha "Varius" [1; 114] so'zidan olingan bo'lib, "har xil", "turlicha", "xilma-xil" degan ma'nolarni bildiradi. "Variant" tushunchasi tarjimashunoslikda qo'llanganda, ma'lum bir asarning tarjima jarayonida vujudga keltirilgan, bir-biridan sal bo'lsa-da farq qiluvchi turli tarjima matn nusxalarini bildirib keladi. Bunday matnlar ko'p jihatdan bir-biriga o'xshash va yaqin bo'ladi.

Tarjima variant ma'lum bir asarning aniq ko'rinishi bo'lib, ba'zan ularda ayrim so'z, ifoda yoki ibora tushurib qoldirilishi yoki mutarjim biladigan tilda yoki anglagan xolatda o'zgartirilishi mumkin. Bir asar tarjimasining ozmi-ko'pmi farqlarga ega bo'lishiga qaramay, ular baribir syujet, kompozisiya, obraz va motivlar tuzilishidagi umumiy belgilarini saqlab qolaveradi.

Tarjima variantlarida badiiylik darajasi qay darajada saqlanganligi uning ahamiyatini, nufuzini belgilaydi. Tarjima varianti hajm jihatdan bir xil bo'lmaydi. Bu tarjimonning so'z bilish va uni tarjimada keltirish mahorati bilan bog'liq. Invariant deganda, shuni aytish mumkinki, variantlar o'zaro qiyoslansa, dastlab ularning ikki turini farqlash imkoni paydo bo'ladi. Birinchisi, asliyat matni. U xaqiqiy, an'anaviy, ijodiy variant bo'lib, tili va ifoda uslubi o'zi mansub xalqning qadriyati sifatida ko'rinadi. Fonema va tovush munosabati invariant-variant dialektikasini o'zida aks ettiradi. Darhaqiqat, umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik dialektikasining tilda namoyon bo'lishini ifodalash uchun tilshunoslar ko'pincha invariant-variant atamalaridan foydalanadilar.

Invariantlilik tushunchasi tilshunoslikka falsafadan kirib kelgan bo'lib, "barqaror, o'zgarmas belgilar yig'indisi" degan ma'noni bildiradi. "Invariant" tushunchasi tilshunoslikka matematika sohasidan kelgan, ya'ni bu atama F. Kleyn tomonidan birinchi marta 1872-yilda turli xil o'zgarishlar ostida o'zgarishsiz qoladigan qiymatni belgilash uchun ishlatilgan.

Tilshunoslikda invariant - bu tilning mavhum tizimining elementi, uning aniq amalga oshirilishidan uzoqlashish tushuniladi [1]. Fonologiyani asoschilaridan biri Boduen de Kurtene tilshunoslikda invariantlik hodisasiga birinchi bo'lib e'tiborni qaratib, fonemani "til tovushining yagona, doimiy namoyadasi", ya'ni, til tizimining fonetik darajasidagi invarianti deb talqin qilgan. Uning ayni paytdagi varianti va shakli allofon hisoblanadi. Grammatika darajasida invariantni N.V Persov o'zining "Rus tilining so'z o'zgaruvchanligida invariantlar" nomli asarida tadqiq qiladi. Olim invariant deganda "turli xil lingvistik yoki vaziyat sharoitida namoyon bo'ladigan tegishli birlik yoki tegishli ma'noning turli xil talqinlarini birlashtirgan umumiy tarkib", deb tushunadi

Falsafiy tushuncha sifatida "invariant" ko'rinishi "variant" atamasiga zid qo'yiladi. Bunday zidlantirish L.Elmslev asarlarida yorqin ifodasini topgan [2; 52]. Uning ta'kidlashicha, matnning ko'p joylarida "ayni bir xil qo'shma gaplar", "ayni bir xil sodda gaplar", "ayni bir xil" so'zlar va hokazolar uchraydi. Boshqacha aytganda, har bir qo'shma gapning, har bir sodda gapning, har bir so'zning bir qancha namunalari uchraydi. Ana shu bir qancha namunalar variantlar, bu variantlar ortidagi mohiyat esa invariant sanaladi [6; 85]. Demak, har bir invariant bir qancha variantlar orqali voqelanadi, yuzaga chiqadi. Invariant nazariyasining vujudga kelishi gnoseologiya uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki u in'ikos nazariyasini chuqurlashtirdi va

unga aniqlik kiritdi [6]. Tarjima invariant deganda, ikki iborani – asl va tarjima tili matni, ya'ni turli xil iboralarni soʻz oʻyini yoki oʻzgartirishlardan keyingi holatidagi oʻxshashlik tushuniladi. Tarjima invarianti sifatida biz asl va natijali (erishilgan, tarjima) matnlarning semantik tengligini anglashimiz kerak. Ammo ba'zi tilshunoslar bu tushunchani kengroq tushuntirishadi. Ularning fikricha, asl va maqsadli matnlarni birlashtirgan matn real holatni aks ettira oladi. Agar vaziyat boshqacha tushunilsa, bu koʻp tillilik vaziyatida ham yuzaga kelishi mumkin boʻlgan tushunmovchilikka olib keladi va koʻpincha komik hazillarga asos boʻladi. Masalan, misol keltiradigan boʻlsak, doʻkondagi vaziyat:

Der Kunde: Ich brauche frische Milch.

Xaridor: Menga toza sut kerak.

Der Verkäufer: Bitte, aber hier ist ein Geschäft, aber keine Farm.

Sotuvchi: Marhamat, ammo biz doʻkonmiz, ferma emas.

Bu oʻrinda ogʻzaki ravishda aytilgan har xil vaziyatlar turli xil pragmatik urgʻu bilan yuzaga keladi. Xaridor oʻziga achimagan, muddati oʻtmagan sut kerakligini aytayotgan boʻlsa, sotuvchi esa har qanday sut sogʻib olinganidan keyin, ma'lum bir muddat oʻtgach, doʻkon peshtaxtasidan oʻrin olishini uqtirmoqda. Agar sotuvchining nutqidagi hazilni tarjimon boshqacha ma'noda aytsa (Toza sut kerak boʻlsa, fermaga boring) hazil yoʻqolgan boʻlib, uning jumllalaridagi ma'nolar kinoyaga aylangan boʻlar edi. Shuning uchun tarjimaning invarianti nafaqat semantikaga (ma'noga), balki pragmatikaga (kommunikativ, soʻzlashuv niyatiga) ham asoslanadi. Odatda, tarjima qilish jarayoni bir tildagi matnni boshqa tilga aylantirish deb anglanadi. Shuning uchun tarjima qilishda har doim ikkita matn mavjud boʻlishi nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, variantlilik tarjima jarayonlarining spesifik xususiyatlaridan biridir. U muayyan bir asarning (ertakning ham) barcha tarjima variantlari majmui haqida bahs etadi. Bir soʻz bilan aytganda, bir ertakning xar bir tarjima namunasi variantlarda tarqalishi va bir-biri bilan yonma-yon yashab kelishiga "tarjima varianti" deyiladi. Tarjima invarianti – matnning funksional dominantlarini hisobga olgan holda tarjima yordamida ma'lum bir kommunikativ vaziyatda muayyan bir matn turini tarjima qilish jarayonida saqlanadigan murakkab mavhum semantik komponent sanalib, muvaffaqiyatli tarjimini yaratish uchun minimal va etarli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – 2-е изд., стер. – М: УРСС: Едиториал УРСС, 2004.
2. Ельмслев Л. Метод структурного анализ в лингвистике. – М., 1960. – С.52.
3. Д.Х.Каримова. Вариантность в переводе (на примере произведений братьев Гримм). Вестник науки и образования, 2019.

4. Karimova Dilafruz Halimovna. Aka-uka Grimm ertaklari o'zbekcha tarjima variantlarining davriy statistikasi. O'zMU xabarlari, ISSN 2181 – 7324. B.228-231.
5. Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.25.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M., Boqiyeva G. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (Fonetika – Leksikografiya). – T., 2005. B.57.
7. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М., 1961. – С. 217-218.